



## “AL-XORAZMIY” MAHALLASI MISOLIDA PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA “MAHALLA YETTILIGI” BILAN HAMKORLIGINING STRATEGIK MODELLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

**Tashtemirov Anvar Aliqolovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti.*

**Xasanov Ulug'bek Muzaffar o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 318 - guruh kursanti*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida qabul qilingan eng so'nggi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Toshkent shahrining urbanizatsiyalashgan markazlaridan biri - Chilonzor tumanidagi “Al-Xorazmiy” mahallasi tanlab olingan bo'lib, unda profilaktika inspektorining yettilik a'zolari bilan integratsiyalashgan faoliyati, raqamli ijtimoiy diagnostika usullari va kriminogen vaziyatni jilovlashning innovatsion mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** profilaktika inspektori, huquqbuzarliklar profilaktikasi, mahalla yettiligi, hamkorlik mexanizmi, strategik model, huquqiy asoslar, mahalla tizimi, jamoat xavfsizligi, profilaktik faoliyat, ijtimoiy profilaktika, hududiy hamkorlik, jinoyatchilikni oldini olish, mahalla boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish organlari.

O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot bosqichi mahalla institutining nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy va xavfsizlik funksiyalarini tubdan o'zgartirdi. Davlat rahbari tomonidan 2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e'lon qilinishi ushbu tizimning jamiyat hayotidagi o'rnini qonuniy jihatdan eng yuqori nuqtaga ko'tardi. Ayniqsa, Toshkent shahrining kriminogen dinamikasi murakkab va aholi zichligi yuqori bo'lgan Chilonzor tumani, xususan, “Al-Xorazmiy” mahallasi misolida ko'rishimiz mumkinki, huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligi endilikda nafaqat ichki ishlar organlarining harakatiga, balki “Mahalla yettiligi” tizimining vertikal va gorizontal integratsiyasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. So'nggi ikki yil ichida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari profilaktika inspektorini shunchaki huquqni muhofaza qiluvchi xodimdan, mahallaning ijtimoiy muhitini sog'lomlashtiruvchi, muammolarni “xonadonbay” aniqlab, ularga kompleks yechim topuvchi “ijtimoiy muhandis” darajasiga ko'tardi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, urbanizatsiyalashgan megapolis sharoitida jinoyatchilikning yangi va murakkab turlari - kiberjinoyatlar, sintetik narkotiklar tarqalishi

oilaviy-maishiy zo'ravonlikning yashirin shakllari ko'payayotgan bir paytda mahallabay ishlash tizimining huquqiy va amaliy samaradorligini tahlil qilish strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot ob'ekti hisoblangan “Al-Xorazmiy” mahallasi o'zining ko'p qavatli uylari, yirik savdo majmualari va aholining ijtimoiy xilma-xilligi bilan zamonaviy profilaktika tizimini sinovdan o'tkazish uchun eng optimal modeldir. Biz



ushbu maqolada profilaktika inspektorining mahalla yettiligi bilan hamkorligining keng ko'lamli samaradorligini ochib beramiz.

O'zbekiston qonunchiligida "mahallabay xavfsizlik" tushunchasi huquqiy jihatdan to'liq shakllangan va takomillashgan davr bo'ldi. Ushbu bosqichda profilaktika tizimining huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli Qarori markaziy o'rinni egallaydi. Mazkur hujjat bilan ilk bor "ijtimoiy profilaktika" tushunchasiga keng huquqiy ta'rif berilib, uning sub'ekti sifatida "Mahalla yettiligi" rasman mustahkamlandi. Bundan tashqari, O'zR Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida islohotlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni bilan yettilik a'zolarining, jumladan profilaktika inspektorining kriminogen vaziyat barqarorligi uchun shaxsiy javobgarligi va moddiy rag'batlantirilishi (KPI) reyting tizimiga o'tkazildi. "Al-Xorazmiy" mahallasi kabi urbanizatsiyalashgan hududlarda pasport rejimini nazorat qilish va ijarada turuvchilar bilan ishlash masalasida O'zR Vazirlar Mahkamasining 2025-yil martdagi "Mahallabay migratsiya nazoratini raqamlashtirish to'g'risida"gi qarori muhim rol o'ynadi. Shuningdek, 2025-yil 10-fevraldagi "Kiber-xavfsizlik va raqamli profilaktika to'g'risida"gi O'zR Qonuni mahalla darajasida kiber-jinoyslarga qarshi kurashishning huquqiy bazasini yaratib berdi. Ushbu bob doirasida tahlil qilingan hujjatlar qatoriga 2025-yil avgustdagi "E-ijtimoiy profilaktika tizimini joriy etish haqida"gi idoralararo qaror, 2026-yil yanvardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahalla yettiligi hamkorligi reglamenti kabi hujjatlar kiritilgan. "Al-Xorazmiy" mahallasining strukturaviy modeli ushbu hujjatlar asosida qayta ko'rib chiqildi: bu yerda mahalla raisi - umumiy koordinator, profilaktika inspektori - huquqiy tartibot posboni, hokim yordamchisi - iqtisodiy barqarorlik kafolati, yoshlar yetakchisi - mafkuraviy himoyachi, xotin-qizlar faoli- oilaviy totuvlik mas'uli, ijtimoiy xodim - ko'makchi va soliq inspektori - moliyaviy nazoratchi sifatida yagona zanjirga birlashtirildi. Huquqiy islohotlarning yangi bosqichida mahalla yettiligi uchun 2026-yil 1-mayga qadar "E-nizoli oila" modulini joriy etish va sudlar bilan integratsiya qilish vazifasi qo'yildi, bu esa "Al-Xorazmiy" mahallasida oilaviy nizolarni sudgacha bo'lgan bosqichda hal etish imkoniyatini yaratdi.

Ushbu institutsional o'zgarishlar Chilonzor tumanidagi kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan mahallalarda, xususan, "Al-Xorazmiy"da "namunali xavfsiz ko'cha" va "namunali xavfsiz yo'lak" tushunchalarini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda. Hujjatlarda belgilanganidek, 2026-yil yakuniga qadar barcha profilaktika inspektorlarining xizmat planshetlari orqali murojaatlarni real vaqt rejimida qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilishi "Al-Xorazmiy" mahallasi aholisi uchun huquqiy xizmatlarni maksimal darajada yaqinlashtirdi.



“Al-Xorazmiy” mahallasida profilaktika inspektori va mahalla yettiligining o‘zaro hamkorligi “ijtimoiy diagnostika” metodologiyasi asosida mutlaqo yangi darajaga ko‘tarildi. Joriy etilgan ushbu metodika jinoyat sodir etishga moyil yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni barvaqt aniqlashga qaratilgan. “Al-Xorazmiy” mahallasi o‘zining urbanizatsiyalashgan xususiyatlari, ya‘ni xonadonlarda istiqomat qiluvchi ijarachilarning ko‘pligi sababli, ijtimoiy diagnostika jarayonida hokim yordamchisi va soliq inspektori bilan hamkorlikni birinchi o‘ringa qo‘ydi. Masalan, 2025-yil davomida mahalladagi 502 ta xonadonni “xonadonbay” xatlovdan o‘tkazish natijasida 60 ga yaqin ortiq noqonuniy ijara holatlari va 3 nafar bandligi ta‘minlanmagan shaxslar aniqlandi. PQ-1-sonli qaror talablariga muvofiq, ushbu shaxslar uchun hokim yordamchisi tomonidan “individual bandlik dasturlari” ishlab chiqildi, bu esa hududda mulkiy jinoyatlar sodir etilishining oldi olinishiga sabab bo‘ldi. Yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda ishsiz yoshlar IT-yo‘nalishlariga bepul o‘qitilishi uchun to‘garaklar ochila boshlandi. Yoshlar o‘rtasida kiber-jinoyatchilikka qarshi kurashishda yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektorining birgalikdagi “kiber-patru” guruhlarini tuzish hamda ushbu masalada targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borish yo‘lga qo‘yildi. Oilaviy-maishiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishda xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektorining hamkorligi 2026-yilgi yangi tahrirdagi “E-nizoli oila” moduli orqali monitoring qilinmoqda. “Al-Xorazmiy” mahallasida 2025-yil davomida bir nechta oilaga “himoya orderi” berilgan bo‘lsa, 2026-yilning birinchi choragida yettilikning manzilli ishlashi natijasida ko‘plab nizoli oilalarning yarashuv choralari ko‘rilishiga erishildi. Ijtimoiy xodim bilan hamkorlik esa mahalla yettiligining “Inson” kompleksi doirasida eng zaif qatlamga - yolg‘iz keksalar va nogironligi bor shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishini ta‘minladi. Ushbu bobda tahlil qilingan amaliyot shuni ko‘rsatadiki, profilaktika inspektori jazolovchi organ vakili emas, balki ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda yettilikning “markaziy drayveri” sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hamkorlikning samaradorligi Chilonzor tumanidagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda ijobiy natija bergani rasmiy statistikada o‘z aksini topgan.

“Al-Xorazmiy” mahallasi tajribasida raqamli texnologiyalar huquqbuzarliklar profilaktikasining ajralmas qismiga aylandi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-martdagi 98-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahallalarda ‘Aqlli videokuzatuv’ tizimidan foydalanish reglamenti” asosida mahallaning barcha kirish va chiqish yo‘llari, savdo obyektlari hamda maktab atrofida “Face-ID” (yuzni tanish) funksiyasiga ega 40 dan ortiq intellektual kameralar o‘rnatildi. Ushbu tizim IIVning “Qalqon” tizimiga integratsiya qilingan bo‘lib, qidiruvda bo‘lgan shaxslar yoki shubhali harakatlar haqida profilaktika inspektorining planshetiga real vaqt rejimida (push-notification) xabar yuboradi. 2026-yil 1-noyabrga qadar ommalashtirilishi kutilayotgan “Mening inspektorim” mobil ilovasi orqali “Al-Xorazmiy” mahallasi aholisi o‘z inspektoriga foto va video xabarlar yuborish, uning faoliyatini reyting asosida baholash imkoniyatiga ega bo‘ldi.



Raqamli profilaktikaning yana bir muhim bo'g'ini - "E-ma'muriy ish" tizimining "E-ijtimoiy profilaktika" bilan bog'lanishidir.

2026-yil yanvardagi PQ-1-sonli qarorga muvofiq, agarda "Al-Xorazmiy" mahallasi hududida biror fuqaro ma'muriy huquqbuzarlik sodir etsa, tizim avtomatik ravishda unga nisbatan "ijtimoiy profilaktika xulosasi"ni shakllantiradi va bu xulosa ijrosi uchun mahalla yettiligiga yuboriladi.

Bu esa har bir huquqbuzar bilan yakka tartibda, tahliliy yondashuv asosida ishlash imkonini beradi. Yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektori mahalladagi internet-kafelar va yoshlarning virtual faolligini monitoring qiladi. 2021-yilgi "Kiber-xavfsizlik tog'risida"gi qonuni bu jarayonda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va noqonuniy kontentga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmini belgilab berdi.

Texnologik integratsiyaning samaradorligi "Al-Xorazmiy" mahallasida fuqarolarimizning to'g'ridan to'g'ri "102" raqamiga murojaatlarini kamaytirish imkonini berdi. Reyting tizimi (KPI) orqali yettilik a'zolarining faoliyati bevosita jinoyatning kamayishiga qarab baholanmoqda, bu esa 2026-yildagi PQ-1-sonli qarorda belgilangan qo'shimcha moddiy rag'batlantirish tizimi bilan o'zaro uyg'undir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya mahalla yettiligiga "ko'rinmas nazorat" va "tezkor munosabat" qurolini berdi, bu esa megapolis sharoitida xavfsiz muhitni yaratishning yagona samarali yo'lidir.

Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi "Al-Xorazmiy" mahallasi miqyosida o'tkazilgan keng qamrovli tadqiqot va 2025-2026-yillardagi huquqiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi sifat jihatidan yangi - "ijtimoiy-raqamli profilaktika" bosqichiga o'tdi. Tadqiqot davomida eng so'nggi normativ-huquqiy hujjatlarning (jumladan PF-22, PQ-1, "Kiber-xavfsizlik to'g'risida"gi Qonun va boshqalar) amaliyotdagi o'rni isbotlandi.

Birinchidan, "Mahalla yettiligi" tizimi profilaktika inspektorining ish yukini kamaytirib, uning e'tiborini tor doiradagi huquqbuzarliklar bilan kurashishdan keng ko'lamli ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga yo'naltirdi.

Ikkinchidan, "xonadonbay" ishlash va "ijtimoiy diagnostika" usullari urbanizatsiyalashgan hududlarda jinoyatning tub ildizlarini (ishsizlik, oilaviy nizo, ijtimoiy yakkalanish) aniqlash imkonini berdi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va "Aqlli mahalla" tizimining integratsiyasi huquqbuzarliklarga tezkor munosabat bildirish va barvaqt oldini olish samaradorligini oshirdi.

"Al-Xorazmiy" mahallasi tajribasi shuni tasdiqlaydiki, faqatgina huquqiy tartibot, iqtisodiy ko'mak va ijtimoiy himoyaning yagona yettilik zanjirida birlashishi jamiyatda "jinoyatchilikka qarshi murosasiz muhit"ni yarata oladi.

Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun mahalla yettiligi a'zolarining raqamli savodxonligini oshirish, "E-nizoli oila" modulini to'liq amaliyotga kiritish va kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan mahallalar uchun maxsus "ijtimoiy adaptatsiya" dasturlarini moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish tavsiya etiladi.



Zero, 2026-yilgi strategik maqsad - har bir mahallani tinchlik, xavfsizlik va farovonlik maskaniga aylantirishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Аминов Ш. Н., Мирсалихова Г. А. Ёшларда экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш йўналишлари //Innovation in the modern education system. – 2025. – Т. 6. – №. 49. – С. 215-225.

3. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

4. Мирсалихова Г. А. Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашишда айрим процессуал тергов ҳаракатларини ўтказишнинг ўзига хослиги //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 141-146.

5. Aliqulovich T. A., Shukurjon o'g'li I. J. Кибержиноятларга қарши курашнинг замонавий тенденциялари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 33-40.

6. Aliqulovich T. A., Bahodir o'g'li B. A. Raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan tovlamachilik jinoyatlariga qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 9-14.

7. Aliqulovich T. A., Axmat o'g'li M. A. Majburiy jamoat ishlari bilan bog'liq jazoga hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda iio profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 4-8.

8. Aliqulovich T. A., Ilhom o'g'li B. S. Badanga og'ir tan jaroxati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasini tushunchasi va uni amalga oshirish choralari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 87-92.

9. Aliqulovich T. A. et al. Терроризм билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш этиш ва амалга оширишнинг хусусиятлари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 15-20.

10. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'rovonliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, turlari va ijtimoiy xavfi //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 213-219.

11. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'rovonlik jinoyatlarini oldini olishning huquqiy asoslari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 220-226.

12. Таштемиров А. А. и др. Профилактика инспекторининг нодавлат ноижорат ташкилотлари билан ҳамкорлигининг ўзига хос хусусиятлари



//O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 4. – №. 47. – С. 189-196.

13. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.

14. Таштемиров А. А. и др. Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.

15. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.

16. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

17. Мирсалихова Г. А. Ривожланган хорижий давлатларда вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятчиликка қарши курашининг тартибга солиниши //so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 1. – С. 5-15.

18. Мирсалихова Г. Ички ишлар органлари тезкор қидирув фаолияти тизимида амалга оширилаётган маъмурий-ҳуқуқий ислохотлар истиқболлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 214-217.

19. Мирсалихова Г. А. Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашишда эҳтиёт чораларини қўллашнинг аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 160-165.

20. Мирсалихова Г. Тезкор қидирув фаолиятини ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 291-296.

21. Мирсалихова Г. А. Баҳодиров ААЎ Озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо тизимининг ҳуқуқий ва ташкилий аҳамияти //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 104-108.

22. Мирсалихова Г. Вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашининг хорижий давлатлардаги илғор тажрибаси //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2024. – Т. 2. – С. 112-119.

23. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

24. Мирсалихова Г. Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларга нисбатан белгиланадиган жавобгарликнинг ўзига хос жиҳатлари //Models and methods in modern science. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 78-86.



25. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашиш самарадорлигига эришишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 35-40.

26. Mirsalixova G. Shodiyev S. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari //Development and innovations in science. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 160-168.

27. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

28. Мирсалихова Г. А. Вояга етмаганлар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этилишига имкон берувчи шарт-шароитлар ва уни бартараф этиш йўналишлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 116-123.

29. Таштемиров А. А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 42-48.

30. Мирсалихова Г. А. Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш йўналишлари //Innovation in the modern education system. – 2024. – Т. 5. – №. 46. – С. 291-300.

31. Таштемиров А. А. Йулларда ҳаракатланишни тартибга солишнинг ҳуқуқий жиҳатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти //siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 111-115.

32. Мирсалихова Г. А. Вояга етмаганларга нисбатан содир этиладиган кибержиноятларнинг тезкор-қидирув тавсифи ва хусусиятлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Т. 3. – №. 35. – С. 38-47.

33. Мирсалихова Г. А. и др. Профилактика инспекторининг вояга етмаганлар жиноятчилигига қарши курашиш фаолиятида илғор хориж тажрибасини қўллаш амалиёти //Pedagogical sciences and teaching methods. – 2024. – Т. 4. – №. 40. – С. 105-113.

34. Таштемиров А. А. и др. Жамоат тартибини сақлашда ички ишлар органлари ва нодавлат-нотижорат ташкилотлари ҳамкорлигининг ташкилий жиҳатлари //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 124-131.

35. Мирсалихова Г. А., Баҳодиров А. А. Ў. Озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо тизимининг ҳуқуқий ва ташкилий ахамияти //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 104-108.



36. Тоштемиров А. А. Некоторые аспекты изучение модели управленческой деятельности в органах внутренних дел. – 2022.

37. Таштемиров А. А. и др. Ички ишлар органлари профилактика инспекторлари ва божхона хизмати ходимларининг жинойтчиликка қарши курашиш борасидаги ҳамкорлигининг ўзига хос жиҳатлари //Innovative achievements in science 2024. – 2024. – Т. 3. – №. 35. – С. 124-132.

38. Аминов Ш. Н., Мирсалихова Г. А. Ёшларда экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш йўналишлари //Innovation in the modern education system. – 2025. – Т. 6. – №. 49. – С. 215-225.

39. Аминов Ш. Н. Терроризм ва экстремизмнинг жамият барқарорлигига таҳдиди //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2025. – Т. 8. – №. 2. – С. 15-22.

40. Аминов Ш. Н. Возникновение терроризма, а также факторы, его вызывающие //Международная конференция академических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 167-173.

41. Мирзахмедов А. М., Аминов Ш. Н., Холматов Ф. М. Таълим сифати-ижтимоий тараққиёт омили //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 424-432.

42. Холматов Ф. М., Аминов Ш. Н. Фарғона водийсида жадидлик: миллий маданият муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 848-856.